

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI  
OMILLARNI MUVOFIQLASHTIRISH**

Rajabova Nargiza Ahmadovna

*A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini  
belgilash ilmiy-tadqiqot instituti katta o'qituvchisi*

Mamlakatimizda ta'lism sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qancha islohotlar o'tkazilib kelinmoqda. Mazkur islohotlar natijasida juda ko'p ta'limdagi muammolar bartaraf etildi, xalqaro tajribalar asosida sifatga ijobjiy ta'sir ko'rsatildi, ammo shunday bo'lsada hozirgi kunda ham ta'limda muammolar yetarlicha mavjud. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun boshqaruv sohasi ham shunday islohotlarga muhtoj. Ta'lim sifatini boshqarish uchun nimalarga ahamiyat qaratish lozim, degan savol tug'iladi. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun avvalo sifatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olish zarur. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- moddiy texnika bazasi;
- har tomonlama sifatli darsliklar va o'quv qo'llanmalarining ta'minlanganlik darajasi;
- salohiyatli kadrlarning yetarlik darajasi;
- talabalarning kasbiy qiziqishlari;
- rahbar kadrlarning boshqaruvchilik qobiliyati;
- ta'lim sifatini baholash mexanizmining mukammallik darajasi;

Mazkur omillar yetarli darajada ta'minlansa, attestatsiya va akreditatsiya jarayonida ushbu holat inobatga olingan holda baholansa, sifatga erishish oson kechadi.

Ta'lim sifatini baholash muhim jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, bu jarayonni boshqarish, tashkillashtirish anchagina e'tibor va salohiyat talab qiladi. Mazkur jarayonni boshqarishda xususiyat, sifat, miqdor, o'lchov, samaradorlik ko'tsatkichlar kabi funksiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ko'zlangan strategiya va ezgu maqsadlarga erishishdagi eng muhim o'lchov bu zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan salohiyatli kadrlardir. Shu boisdan ham, mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichini isloh qilish va yakunda zamonaviy oliy ta'lim tizimi orqali keng dunyoqarash, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega kadrlarni etishtirib chiqarish yo'lida bir qator islohotlarga muhtojmiz. Quyidagi masalalarga ahamiyat qaratish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga erisha olamiz deb hisoblayman:

- ta'limning barcha bosqichlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari va global talablarga muvofiq samarali isloh qilishni ta'minlaydigan yangi boshqaruv tizimini tashkil etish;



- kuchli ta'lim tizimini izdan chiqargan, birinchi navbatda o'qituvchi kadrlarning ketib qolishi va avvalgi tizimning kuchli jihatlarining yo'qolishiga sabab bo'lgan omillarni aniq belgilash va bartaraf etish;
- kuchli ta'lim tizimini izdan chiqargan, birinchi navbatda o'qituvchi kadrlarning ketib qolishi va avvalgi tizimning kuchli jihatlarining yo'qolishiga sabab bo'lgan omillarni aniq belgilash va bartaraf etish;
- yangi ta'lim tizimining davr talablariga javob beradigan va tushunarli maqsadli vazifalarini belgilash, uni yangi maqsad va vazifalarga muvofiq tashkiliy va uslubiy qayta tuzish.

Ta'lim sifati va samaradorligi sanoat va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish jarayonidan keskin farq qiladi. Agar yaxshi urug' tanlanib, yerga zamonaviy agrotexnik ishlovlar berilsa, shuningdek, qulay iqlim sharoiti kelsa, bir yilning o'zidayoq yuqori sifatli mahsulot yetishtirish mumkin. Ta'limning samaradorligi bir-ikki yilda emas, besh-o'n yillarda ko'zga tashlanadi.

Shu boisdan, ta'lim tizimida boshlangan islohotlar uzlucksizligini ta'minlash orqaligina mamlakatni yuksaltirishga qaratilgan vazifa va maqsadlarga erishini ta'minlovchi hamda uchinchi Renessansni amalga oshiruvchi barkamol avlodni yetishtirish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Sh.Qurbanov, E.Seytxalilov "Ta'lim sifatini boshqarish" T.:”Turon-Istiqbol”:2006
2. Vdovina, S. A. Ta'lim sifati pedagogik muammo sifatida / S. A. Vdovina, E. A. Vdovina. - Matn: to‘g‘ridan-to‘g‘ri // Yosh olim. - 2015. - № 23 (103). - S. 940-942. - URL: <https://moluch.ru/archive/103/23812/> (kirish sanasi: 05/13/2020).
- 3.Rajabova N.A “Дидактический параметры проектирования качества непрерывного образования” Uzlucksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal Maxsus son, Toshkent - 2020